



ANJIR CHOYI (FICUSTEA)NING FOYDALI XUSUSIYATLARI

Abdurasulova Gulshan Elmurod qizi

Samarqand agroinovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

Annotatsiya Maqolada anjir o'simligining kelib chiqishi va bargidan olinadigan choyning inson organizmidagi foydali xususiyatlari yoritilib beriladi.

Kalit so'zlar: Ficus carica, ficustea, anjir choyi, partenogenez, qandli deabet, jigar serrozi, bronxial astma, oq dog'lar(vitilego).

KIRISH

Anjir (*Ficus carica* L.)-tutdoshlar (anjirgullilar) oilasiga mansub subtropik meva turi. Turkiya, Jazoir, Yevropaning janubida, AQShda katta maydonlarni egallaydi, Kavkaz, O'rta Osiyo, Qrimda ham yetishtiriladi. Yovvoyi holda O'rta dengiz bo'yi, Kichik Osiyo, Eron, Shimoli-g'arbiy Hindistonda o'sadi. Anjir juda qadimdan madaniylashtirilgan o'simlik hisoblanadi (Osiyoda 5 ming yildan, Yevropada kamida 2 ming yildan beri). Anjir daraxtining bo'yi 4-10 m, shoxlari kalin, yoyilib o'sadi, novda, barg va mevasida sutsimon shira bor. Bargi yirik, 3-7 bo'lmal, ba'zan bo'lmasiz, to'q yashil, orqasida tu-klari bor. Bir yilda 2-3-marta gullaydi (aprel-may, iyun-iyul, avgust). Mayda bir jinsli gullardan iborat to'pguli bo'lajak „meva“ ichida bo'lib, mayda blastofaga arilar yordamida changlanadi, ba'zilar esa changlanmasdan (partenogenez) va urug' tugmasdan meva qiladi. Mevasida 20-24% qand, 0,5-4,2% pektin moddalari, 3,4-7,4% kle-chatka, 0,1% gacha organik kislotalar, ka-rotin, kalsiy, temir, fosfor va boshqa bor. Anjirning nafaqat mevasi balki uning bargi xam juda foydali bo'lib, xalq tabobatida ko'pgina kasalliklarni davolashda foydalaniladi.

ANJIR MEVASI VA BARGINING FOYDALI JIHATLARI

Qadim-qadimdan anjir tabobatda keng qo'llanilgan. Uning mevasi qaynoq suv yoki sutda damlab iste'mol qilinsa, yo'tal, tomoq og'rig'ini davolashda yaxshi samara beradi. Mag'zi esa tana haroratini tushiruvchi va terni haydash xususiyatiga ega. Qora anjir bod kasalida yordam beradi. U echki suti bilan birgalikda qaynatib iste'mol qilinsa, organizmni zararli moddalardan tozalaydi hamda immun tizimini mustahkamlaydi. Bu tansiq meva o'pka sili, mushaklarning holsizlanishi kabi xastaliklarda ham eng yaxshi davo hisoblanadi.

Qandli deabetda anjir barglari qondagi qand miqdorini, xolestrinni va treglosidlar kabi yog'larni kamaytirishda yordam beradi. Anjir choyi yoki anjir



bargi ekstraktini insulinni o'rnida foydalanish mumkin, va bu organizm uchun talab qilinadigan insulin darajasini pasaytiradi. Bu bilan inson organizmiga kerakli in'eksiyaga bo'lgan extiyoji kamayadi, bu esa qandli deabetda juda katta yordam beradi.

Jigar sirrozida to'rtta anjir yaprog'i yaxshilab yuviladi va 50 g miqdordagi shakar bilan hovonchada ezib, bo'tqa holga keltiriladi. Tayyor aralashma kuniga 2 mahal 1 choy qoshiqda, 1 stakan suv bilan 14 kun ichiladi.

Bronxial astma hurujidan aziyat chekadiganlar uchun: quritilgan anjir bargidan 3 qoshig'iga yarim litr qaynagan suv quyib, termosga damlanadi va kechasiga qoldiriladi. Tayyor tindirmani har kuni 4 marta yarim stakandan ichish dardingizni engillatadi.

Teridagi oq dog'lar(vitilego)ni davolashda ham anjir barglari yordamga keladi. bunda anjir barglari maydalanib, 2 osh qoshiq hajmga keltiriladi. ustidan 400 ml qaynoq suv quyiladi va 1,5 soat tinditib quyiladi. Bu damlama kuniga 3 mahal 100 mg miqdorda ichiladi. Bargidan chiqqan suyuqlik esa teridagi dog'larga suriladi. Bu usul teridagi oq dog'larni kamaytirishga yordam beradi.

Bundan tashqari anjir bargidan tayyorlangan damlamalar(choylari) ichni suruvchi va yaxhigina peshob haydovchi tabiiy vositadir. Siydiq chiqarish yo'llari va oshqozon ichak yo'li uchun tavsya etiladi. Oshqozon yarasida ham tavsiya etiladi. Uning bargidan psoboran nomli dorivor vosita tayyorlanadi. Bu malham teridagi oq dog'lar (vitiligo) hamda boshqa teri kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Bargidan olinadigan furalen dori vositasi terining zamburug'li xastaliklari, soch to'kilishi va oq dog'larda foyda beradi.

ANJIR CHOYI (FICUSTEA) OLISH TADQIQOT NATIJALARI

Anjir asosan bir yillik pishgan novda qalamchalaridan ko'paytiriladi. 2-3 yoshdan meva tugib, 7-10 yoshda g'arq hosilga kiradi, 50-80 yil meva beradi, 150-200 yilgacha yashaydi. Bir tupi 50 kg gacha meva qiladi. Anjir bir mavsumda ikki marta hosil beradi. Birinchi hosil (xoki anjir) ancha kam bo'lib iyun-iyul oylarida, ikkinchisi (asosiy) hosil sentabr oyida pishadi. Anjir namga ancha talabchan, yengil va serunum tuproqda yaxshi o'sadi. Sho'rlangan yoki shag'alli tuproqlarda deyarli o'smaydi. Anjir to'plari sovuqqa chidamsiz bo'lganidan O'zbekiston sharoitida qishda ko'milib, bahorda ochiladi. Ochilgandan so'ng shakl berish davomiyligida 4-5 ta va keyingi shoxlari navbat bilan shakllantiriladi. Anjir tupiga 3-4 ta asosiy tanali buta ko'rinishida shakl beriladi. Butash ishlari bahorda- gullash jarayonida g'ovlagan ortiqcha barglari, Yozda bir-ikki marta shu yili chiqqan qalinlashtiruvchi novdalar, g'ovlagan barglar va kech kuzda ko'mish oldi qurigan shoxlar va barglaridan halos



etiladi, kesib tashlanadi. Biz ana shu olib tashlangan ortiqcha barlardan oqilona foydalangan holda-anjir choyi(FICUSTEA)ni ishlab chiqarishni yo'ga qo'yamoqdamiz. Biz anjir barglaridan choy ishlab chiqarganimizda anjir daraxtiga hech qanday ziyon yetmaydi. Anjir darxti ikki marotaba xosil berish davrida uning hosili yaxshi rivojlanishi va quyosh nuri yaxshi tushishi uchun barglari olib tashlanadi. Anjir daraxtiga kimyoviy ishlov berilmaydi shu boisdan uning bargidan tayyorlangan choylarimiz ekologik toza mahsulot hisoblanadi. Yig'ishtirib olingan barglarni mahsus quritish pechlarida yoki oftobda (soya joylarda) quritib olamiz, va maydalab mahsus choy qadoqlarida qadoqlab olamiz. Bu choylar tayyor xolatda (oddiy choy kabi) damlanadi va kasallik turiga qarab, kuniga bir martadan uch martagacha ichish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamatqulova, S. A. (2023). FICUS CARICA O'SIMLIGINING XALQ TABOVATIDAGI AXAMIYATI. *Scientific Impulse*, 1(9), 1825-1827.
2. Қўшоқович, Қ. С., Спйфидинов, Х. З., & Самаридинович, Қ. Н. (2024). ГИЛОС (CERASUS AVIUM L.) МЕВАЛИ ЭКИНИНИ ЕТИШТИРИШНИНГ АМАЛИЙ ЖИХАТЛАРИ. *TADQIQOTLAR. UZ*, 31(1), 154-159.
3. Shavkatovna, X. M., Ziyedullayevich, S. X., & Qo'shoqovich, Q. S. (2024). SHAFTOLI, OLXO 'RI VA BODOM PAYVANDTAGLARINI ISSIQXONADA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 31(1), 163-167.
4. Sanaev, S. T., Qahhorov, S. Q., & Sayfidinov, X. Z. (2024). THE ROLE OF BROCCOLE CABBAGE IN FOOD SECURITY. *TADQIQOTLAR*, 31(1), 160-162.
5. Norboy o'g'li, A. S., Farxodovich, Y. A., & Zokirovna, I. M. (2024). YUMSHOQ BUG 'DOY DURAGAYLARNING MIQDORIY BELGI VA XUSUSIYATLARINI, IRSIYLANISH DARAJASI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 16(1), 86-91.
6. Farxodovich, Y. A., Zokirovna, I. M., & Ziyedullayevich, S. X. (2024). YUMSHOQ BUG'DOY JAHON KOLLEKSIYASI NAV NAMUNALARINI QISHGA CHIDAMLILIGI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(3), 15-22.
7. G'Aybullayev, G. U. S., Xayitov, A. B., & Yalgashev, A. F. (2023). KUZGI YUMSHOQ BUG'DOYNING QISHKI SOVUQLARDAN JAROHATLANISHI BA UNI ANIQLASH. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 867-871.
8. Yalgashev, A., & Murodova, D. (2023). ZAMBURUG 'LI KASALLIKLAR SARIQ VA QO 'NG 'IR ZANGA CHIDAMLI NAV NAMUNALAR. PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION, 19(23), 134-137.